UO‘K 94(100)

IKKINCHI JAHON URUSHIDA ASAKALIK O‘G‘LONLARNING ISHTIROKI

S.A. Hoshimov

Ikkinchi jahon urushi butun insoniyat boshiga og‘ir musibatlarni keltirdi. Ayniqsa sobiq Ittifoq xalqlari bu urushdan eng ko‘p zarar ko‘rdi. Fashistlar Germaniyasi hamda militaristik Yaponiya ustidan qozonilgan g‘alaba zamirida ko‘plab qurbon va yo‘qotishlar yotadi. Ushbu maqolada asakalik o‘g‘lonlarning ikkinchi jahon urushiga safarbar etilishi, buyuk g‘alabaga ularning qo‘shgan hissasi masalasi arxiv hujjatlari hamda manbalarga tayangan holda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *G‘arbiy front, Sovet-fin urushi, Sovet-Germaniya fronti, mehnat fronti, “qurolsiz askarlar”, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, bolalar uyi, ishchi bataloni, harbiy xizmat, aviatsiya bombalari, snaryadlar, xotira maydoni.*

Вторая мировая война принесла тяжелое горе всему человечеству. От этой войны особенно пострадали народы бывшего Союза. В основе победы над нацистской Германией и милитаристской Японией лежат многие утраты и принесенные жертвы. В этой статье, на основе новых архивных данных, рассматривается мобилизация молодых юношей Асаки на вторую мировую войну, их вклад в Великую победу.

Ключевые слова: *Западный фронт, советско-финская война, советско-германский фронт, трудовой фронт, “солдаты без оружия”, социально-экономическая жизнь, детский дом, трудовой батальон, военная служба, авиационные бомбы, снаряды, Площадь памяти.*

Ikkinchi jahon urushi 1939-yil 1-sentyabrda Germaniyaning Polsha hududiga bostirib kirishi bilan boshlandi. Urush qisqa muddat ichida dunyodagi juda ko‘p davlatlarni o‘z domiga tortdi. 1941-yil 22-iyunda fashistlarning 191 diviziyasi (shundan 153 tasi bevosita Germaniyaning o‘ziga, qolgani uning ittifoqchilariga tegishli edi) sobiq SSSRning Boltiq dengizidan tortib to Qora dengiz hududlarigacha cho‘zilgan chegaralari bo‘ylab hujumga o‘tgan. Shu tariqa sobiq Ittifoq xalqlari, jumladan, o‘zbekistonliklar ham ikkinchi jahon urushiga tortilgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu urush va unda o‘zbekistonliklarning ishtiroki masalasiga to‘xtalib shunday fikrlarni ilgari surgan: “Hech shubhasiz, bu dahshatli urush, butun insoniyat qatori bizning xalqimizga ham mislsiz kulfat va yo‘qotishlar olib keldi. Ikkinchi jahon urushida minglab yurtdoshlarimiz Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo‘ldi, minglab otalarimiz, bobolarimiz jangovar orden va medallar bilan mukofotlandilar. Xalqimiz front ortida fidokorona mehnat qilib, urush maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog‘, dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berdi... G‘alaba biz uchun naqadar qimmatga tushgani, xalqimiz dunyoni fashizm balosidan xalos etishga qanday katta hissa qo‘shganini yaqqol ko‘rsatadi. Tarixning ana shunday beshafqat va suronli sinovlaridan yorug‘ yuz bilan, har tomonlama munosib o‘tgan xalqimizga har qancha ta’zim qilsak, har qancha tasannolar aytsak arziydi, albatta” [1. B. 127] deya bildirgan fikr-mulohazalari o‘zbek xalqining urushga qo‘shgan hissasi va ishtiroki benihoya salmoqli ekanini ko‘rsatadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 2021-yil 9-may kuni Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida yana shunday degandi: “Minglab chaqirim olislarda kechgan beayov janglarda ko‘ksini dushman o‘qiga qalqon qilgan, yurt sog‘inchi va qadrdonlar diydorini dilga tugib, kurashlarda jon olib, jon bergan o‘zbek o‘g‘lonlarining matonati qalblarimizda mangu yashaydi... Vatan va xalq ozodligi, kelgusi avlodlarning baxt-u saodati yo‘lida mardlik va jasorat ko‘rsatgan insonlar xotirasi hamisha barhayot mangudir” [2].

Ikkinchi jahon urush yillari ham O‘zbekiston tarixining uzviy bir qismidir, chunki 1941-yil ara-

fasida respublikamizda yashagan 6 million 800 mingdan ziyod aholining qariyb 2 millioni qo‘lida qurol bilan frontda qatnashgan. Ularning 500 mingdan ziyodi janglarda halok bo‘lgan [2]. Darhaqiqat, o‘zbekistonliklar urush yillarida ham frontda, ham front ortida mislsiz vatanparvarlik namunalarini ko‘rsatdilar.

O‘zbekiston xalqining fashist bosqinchilariga qarshi kurashda faol ishtirok etishi undagi milliy ruhning qudratli namoyon bo‘lishi edi. Urushning dastlabki kunlaridanoq, butun mamlakatda bo‘lganidek, O‘zbekistonda ham partiya tashkilotlari tomonidan mitinglar va yig‘ilishlar tashkil qilindi, ularning qatnashchilari fashistlar Germaniyasining to‘satdan hujum qilishiga o‘z g‘azab-nafratlarini ifodaladilar, barcha kuchlarni, agar lozim bo‘lsa, hayotlarini ham g‘alaba ishiga bag‘ishlashga azm-u qaror qilganliklarini yakdillik bilan bayon etdilar.

23–24-iyun kunlari respublikaning Samarqand, Buxoro, Andijon, Namangan, Farg‘ona, Nukus va boshqa shaharlarida ko‘p ming kishilik mitinglar bo‘lib o‘tdi. Ularda so‘zga chiqqanlarning nutqlari Vatanni ko‘kraklarini qalqon qilib himoya qilishga, mamlakat ichkarisida va frontda yovuz bosqinchilar ustidan g‘alabani ta’minlashga qaratilgan edi.

Har kuni frontga jo‘nab ketish istagi bilan harbiy komissarliklarga kelib turgan arizalar oqimi o‘zbekistonliklarda milliy vatanparvarlik ruhi yuksakligining yaqqol namunasi bo‘ldi. Mazkur arizalarni turli kasbdagi va har xil millatga mansub kishilar, erkaklar va ayollar, yoshlar va keksalar, partiyali va partiyasizlar berar edilar. Manbalarda qayd etilishicha, urushning dastlabki kunlarida respublikaning shahar va tuman harbiy komissarliklariga ko‘ngillilardan 14 mingdan ortiq ariza tushgan [3. B. 11]. Jumladan, ko‘plab asakaliklardan ham ko‘ngilli sifatida frontga jo‘natishni so‘rab arizalar tushgandi.

Darhaqiqat, Ikkinchi jahon urushi yillarida Andijon viloyati Asaka tumani (o‘sha paytdagi Lenin rayoni) aholisining qo‘liga qurol olishga qodir bo‘lganki barcha o‘g‘lonlari harbiy xizmatga olindi. Ular SSSRning g‘arbiy hududlarini dushmandan himoya qilishga safarbar etilib, birin-ketin frontga yo‘l oldilar. Asaka tumanidan 1939-yilda 1787 kishi, 1940-yilda 1130 kishi, 1941-yil 1636 kishi, 1942-yili 3625 kishi, 1943-yili 2512 kishi, 1944-yili 401 kishi, 1945-yili 284 kishi harbiy xizmatga jo‘natilgan edi [4. B. 1–61]. Ular Ikkinchi jahon urushi frontlarida mislsiz qahramonliklar ko‘rsatib, dushmanni mag‘lub etishga munosib hissalarini qo‘shdilar. Birgina Asaka shahrining o‘zidan 1941–1945-yillar oralig‘ida 2351 kishi, shu jumladan, 17 nafar ayol harbiy xizmatga chaqirilib, frontga jo‘natildi [5. B. 24].

Arxiv hujjatlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, Ikkinchi jahon urushi frontlariga safarbar qilingan asakaliklarning 19–22 foizi 1904–1905-yillarda, 20–22 foizi 1906–1914-yillarda tug‘ilgan bo‘lsa, qolgan aksariyat chaqiriluvchilar 1915–1922-yillar oralig‘ida tug‘ilgan o‘spirin yoshlar bo‘lgan. Ularning 90 foizdan ortig‘i o‘rta ma’lumotli bo‘lib, aksariyati kolxoz yoki sovxozlarda, ayrimlari esa zavodlarda ishchi yoki xizmatchilar bo‘lgan. Harbiy xizmatga chaqiriluvchilar orasida o‘qituvchi, muhandis, shifokor va boshqa kasb egalari, oliy ma’lumotli kishilar ham bo‘lgan. Biroq harbiy xizmatga olinganlarning aksariyati umuman harbiy tayyorgarlikka ega emas edi, shunga qaramay 1941–1942-yillarda harbiy xizmatga chaqirilganlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri urush janggohlariga jo‘natilgan [5]. 1942-yilning oxiri va 1943-yil boshida harbiy xizmatga chaqiriluvchilar Toshkent, Farg‘ona, Andijon shaharlarida tashkillangan harbiy qismlarda tayyorgarlik mashqlarini o‘tab, so‘ngra Ikkinchi jahon urushi janggohlariga jo‘natilgan [5].

Asaka tumani Mudofaa ishlar bo‘limi joriy arxividagi 1940–1945-yillarda harbiy xizmatga chaqirilganlar qayd etilgan daftarlar o‘rganilganda, harakatdagi qo‘shinlarda xizmatga olinganlardan tashqari yuzdan ortiq asakaliklarning harbiy sanoat korxonalari va qurilish ishlarida ishlash uchun mehnat armiyachilari safiga ham safarbar etilgani ma’lum bo‘ldi [4. B. 12–19].

Urush yillarida O‘rta Osiyo va Qozog‘istondan mamlakatning Ural, Janubiy Ural, Boshqirdiston, Chelyabinsk va boshqa hududlariga yuz minglab kishilar mehnat armiyachilari sifatida safarbar qilingandi. Ular mislsiz og‘ir sharoitlarda front talabini qondirish, qurol-aslaha, o‘q-dori, kiyim– kechak va boshqa mahsulotlarni tayyorlashda qahramonlik va jasorat namunalarini ko‘rsatdilar [6. B. 60].

Ikkinchi jahon urushi davrida harbiy xizmatga chaqirilgan asakaliklar esa urushning turli frontlarida dushmanga qarshi mardonavor jang qildilar. Asakalik askarlar qay frontda bo‘lmasin, janglarda jasorat va fidoyilik namunalarini

ko‘rsatib, g‘alabaga o‘zining munosib hissasini qo‘shdilar.

Urush davrida frontda ko‘rsatgan jasorati uchun asakaliklardan ikki nafari Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo‘lgan. Ulardan biri gvardiyachi kapitan G‘ulom Yoqubovdir. U 1915-yil 15-mayda Andijon viloyati Asaka tumani Mirzobod qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan [5. B. 87]. Umumta’lim maktabining 6-sinfini tamomlagan. 1937–1939-yillarda Leningrad harbiy okrugining qismlarida harbiy xizmatda bo‘lgan. 1939-yil 26-noyabrda Sovet Ittifoqi Finlyandiyaga qarshi urushga kiradi. Natijada 1939-yil dekabrida sobiq SSSR agressor davlat sifatida Millatlar Ligasidan chiqarilgan edi (sobiq SSSR Millatlar ligasiga 1934-yilda kirgan). Boshlangan Sovet-Fin urushining harbiy harakatlari Kareliya bo‘g‘ozidan to Barentsovo dengizigacha bo‘lgan masofadagi frontlarda kechgan. Harbiy harakatlarning asosiy janglari Finlyandiyaning eng yirik harbiy kuchlari to‘plangan Kareliya bo‘g‘ozida yuz bergan edi.

Finlyandiyaga qarshi Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) harbiy okrugi qo‘shinlarining hujumi 1939-yil 30-noyabrda boshlanadi. Fin qo‘shinlarining qattiq qarshiligiga qaramay sovet qo‘shinlari olg‘a siljib finlarni taslim etadi. Finlarga qarshi janglarda asakalik G‘ulom Yoqubov mardlarcha kurashib, jasorat namunalarini ko‘rsatgan edi.

1940-yilning 4-martiga o‘tar kechasi 7-armiya qo‘shinlari Boltiq floti kuchlarining himoyasi ostida Viborg ko‘rfazida dushmanni tor-mor etishadi. Finlyandiya o‘zining yengilganligini e’lon qiladi. Mana shu jangda G‘ulom Yoqubov o‘ng qo‘lidan og‘ir yaralanadi. Serjant G‘ulom Yoqubov gospitalda davolanib qaytgach, u hozirgi Qo‘rg‘ontepa tumani hududida tashkil etilgan “Savay” paxtachilik sovxoziga direktor o‘rinbosari lavozimiga ishga tayinlanadi [7. B. 20]. U bu yerda ham fidokorona mehnat qiladi. Cho‘lni o‘zlashtirish, paxtachilikni rivojlantirishda jonbozlik ko‘rsatadi.

1941-yil fashistlarning SSSRga agressiyasi natijasida 1941-yil noyabr oyida G‘.Yoqubov yana harbiy xizmatga chaqirilgan [6. B. 87]. Shu yili komandirlarni qayta tayyorlash kursini tamomlagan. 1942-yilning noyabridan frontdagi janglarda ishtirok eta boshlagan. G‘ulom Yoqubov 1944-yildan 1-Belorussiya fronti 3-armiya 169-o‘qchi diviziyasiga qarashli 556-o‘qchi polkining avtomatchilari rotasiga komandirlik qila boshlaydi [8. B. 11–13]. U shiddatli janglarda turli xavf-xatarlardan cho‘chimay matonat namunalarini ko‘rsatib, o‘zi o‘rnak bo‘lib qo‘l ostidagi jangchi yigitlar, askar hamda zobitlarni dushmanga qarshi shiddatli janglarga chorlaydi. Jangchi yigitlarni doim g‘alabaga ruhlantirib, jang maydonida ishtirokini ta’minlaydi.

G‘ulom Yoqubov nemis bosqinchilariga qarshi Stalingrad, Dnepr uchun bo‘lgan shiddatli janglarda ishtirok etib, qahramonlik namunalarini ko‘rsatgan. Jumladan, Mogilyov uchun bo‘lgan janglarda G‘.Yoqubov yuksak matonat namunalarini ko‘rsatdi. Ushbu jang 1944-yil 22-iyundan 23-iyunga o‘tar kechasi ro‘y berdi. G‘.Yoqubov qo‘l ostidagi avtomatchilar rotasi bilan Mogilyov oblastining Bixov rayonidagi Ludchitsa qishlog‘i janubi-sharqiy qismidagi 150,9 raqamli noma’lum tepalik yaqinida polkning chap tomonida jang olib borardi. Uning rotasi tez va dadil harakat qilib dushman mudofaasini yorib o‘tadi va qishloqning janubi-g‘arbiy chekkasiga chiqib oladi. Biroq shu payt gitlerchilar 3 batalonga yaqin piyoda askarlardan iborat kuchni to‘plab, minomyotlardan shiddatli o‘t ochib, qarshi hujumga tashlanadi. 20 soat davomida G‘ulom Yoqubov rotasi dushmanning qirqdan ortiq qarshi hujumini bartaraf etadi va 400 dan ortiq dushmanni er tishlatadi. Biroq oxir-oqibatda Yoqubov rotasi dushman qurshovida qoladi. Shunga qaramay, Yoqubov rotasi jangchilari sarosimaga tushmay, kuch jihatdan ancha ustun bo‘lgan dushmanning barcha hujumini qaytarib turadilar. Rota shaxsiy tarkibining ko‘pchiligi halok bo‘ladi, jumladan, G‘.Yoqubovning o‘zi ham ushbu tengsiz jangda qahramonlarcha halok bo‘ladi [9. B. 24–25]. Uning brigadasi qo‘lga kiritilgan marradan bir qadam ham orqaga chekinishmaydi, dushman ular joylashgan marrani egallay olmagach, nihoyat ortga chekinishga majbur bo‘ladi.

Fashist bosqinchilariga qarshi janglarda ko‘rsatgan mardligi va jasorati uchun G‘ulom Yoqubovga vafotidan so‘ng Sovet Ittifoqi qahramoni unvoni berildi. Bugungi kunda ham asakaliklar o‘zlarining jasur o‘g‘loni xotirasini muqaddas saqlab kelmoqdalar. Hozirgi kunda Asaka shahrining eng so‘lim va markaziy ko‘chalaridan biri uning nomi bilan ataladi. Shu ko‘chada, Shahrixonsoy sohilida G‘ulom Yoqubov maydoni bunyod etilib, tepa qismida qahramonga

yodgorlik o‘rnatilgan. Har yili Asakadan harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlarni ushbu maydonga to‘plab, yig‘ilish o‘tkazilib, gvardiyachi kapitan G‘ulom Yoqubovning janglarda ko‘rsatgan mislsiz qahramonlik namunalarini yodga oladilar, urush faxriylarining xotiralarini tinglaydilar. Vatanga o‘z hamshaharlari G‘ulom Yoqubov va boshqa front jangchilari singari sadoqat bilan xizmat qilishga qasamyod etadilar.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Sovet Ittifoqi Qahramoni bo‘lgan yana bir asakalik Mansur Idiatovich Abdullindir. U 1919-yil 15-sentyabrda Boshqirdistonning Miyaki tumani Kirgiz-Miyaki qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan. Ma’lumoti – o‘rta. Mansur Abdullin dastlab o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishloqda mehnat qilgan. Keyinroq Andijon viloyati Asaka shahar Xalq bankining bo‘lim taftishchisi lavozimida ishlagan [10. B. 75–77]. Harbiy xizmatga 1939-yilning may oyida hozirgi Andijon (Farg‘ona) viloyati Asaka tumani harbiy qismidan xizmatga chaqirilgan [11. B. 3]. 1941-yildan ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. 1941-yil noyabrida jangda yaralanib, harbiy gospitalda davolangan, 1942-yilning iyulidan yana jang maydonlariga qaytgan. 1-Ukraina frontida o‘qchi diviziyasida jang qilgan. To‘p komandiri gvardiyachi katta serjant Mansur Abdullin 1943-yil 10-iyulda Oryol (Kursk) viloyati Fatej tumani Molotichi qishlog‘i yonida nemis-fashistlari bilan bo‘lgan shiddatli jangda mislsiz mardlik, jasurlik va qahramonlik ko‘rsatdi [8. B. 14].

Dushmanning piyoda askarlari 60 ta tanki bilan batareyaning pozitsiyasiga uch marta hujum qiladi. To‘plar atrofidagi butun yer aviatsiya bombalari, snaryadlar va minalar zarbasidan ostin-ustun bo‘lib ketgan edi. Fashistlar Mansur Abdullin to‘pchilari egallab turgan pozitsiyaga deyarli 150 dan ortiq aviabomba va bir necha yuzlab snaryad, minalarni tashlashgan edi. Abdullinning to‘pchilari dushman piyoda batalonining askarlari va tanklarining ketma-ket qilgan hujumlarini mardonavor qaytarib turadi. Mansur Abdullinning o‘zi dushmanning 8 ta tankini ishdan chiqaradi hamda tanklar orqasidan hujum qilayotgan fashist piyoda avtomatchilarini qirib tashlaydi [8. B. 15].

Katta serjant Mansur Abdullin navodkachi (nishonni belgilovchi) Rabkin bilan birgalikda to dushman snaryadlari to‘plarini ishdan chiqargunicha, o‘zlari esa snaryad parchalaridan yarador bo‘lgunlarigacha dushmanga qarshi mardonavor jang qiladi. Bu jangda M.Abdullin og‘ir yaralanadi.

Fashizmga qarshi kurashda mazkur jangdagi ko‘rsatgan mardligi va jasurligi uchun SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1943-yil 7-avgustdagi Farmoniga binoan Abdullin Mansur Idiatovichga urush Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berilgan. Harbiy gospitaldan davolanib qaytgan Mansur Abdullin 1944-yil oktyabrda zaxiraga bo‘shatilgan [7. B. 23]. M.Abdullin 1945-yil frontdan qaytib, Asaka shahrida yashagan. Keyinchalik Boshqirdistonning Ufa shahriga borib, Boshqiriston davlat pedagogika institutida o‘qigan. U qariyb 40 yil davomida xalq ta’limi tizimida ishlagan. Strelibashego qishlog‘ida 109-maktabda va Ufa shahridagi 2-maktab-internatda direktor lavozimlarida ishlab, 1996-yil 8-iyunda vafot etgan. Boshqirdistonning Ufa shahrida dafn etilgan [7. B. 23].

Asakalik yana bir urush qatnashchisi Foziljon Asomiddinov 1941-yilda Toshkent davlat tibbiyot institutida o‘qishni tamomlab, Toshkent shahridan harbiy xizmatga chaqirilgan. U Kalinin frontiga qarashli 234-o‘qchi diviziyasi polklaridan birida tibbiyot rotasining bosh vrachi vazifasida xizmat qildi. Yaradorlarga o‘z vaqtida tibbiy yordam ko‘rsatish, ularni jang maydonlaridan olib chiqish, davolash va jangovar safga qaytarish kabi o‘ta mashaqqatli va mas’uliyatli ishlarga bosh-qosh bo‘ladi. Leytenant Foziljon Asomiddinov janglarda ko‘rsatgan jasorati uchun qator orden va medallar bilan taqdirlangan. Urushdan so‘ng u bir qancha tibbiy muassasalarda faoliyat ko‘rsatib, hamyurtlarimizning salomatliklarini mustahkamlash ishiga munosib hissa qo‘shdi [9. B. 24–25].

Fashizm hamda yapon militaristlariga qarshi janglarda ko‘rsatgan jasoratlari uchun Asaka shahrining o‘zidan 180 nafar jangchi jangovar orden va medallar bilan mukofotlangan. Ular orasida U.Sotvoldiyev, A.Karimov, A.Muratov, V.G.Emelyanov, X.Qurbonov, M.M.Bekchintayev, R.Qurbonov, S.Ahmedov, G‘.Mahmudov, I.Yunusov, S.Marasulov, I.U.Staxanov, F.Ablyamitova, G. Shaydullina va boshqa bir qator asakaliklar bor.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, Asaka tuman mudofaa bo‘limi tomonidan ikkinchi jahon urushi yillarida harbiy xizmatga olinganlar ro‘yxatida mehnat frontiga olinganlar ham borligi aniqlandi. Ma’lumki, ular 1941–1945-yillarda

O‘zbekistondan majubriy mehnat armiyasiga olingan va o‘sha yillarda “qurolsiz askarlar” deb nomlangan. Ular ham o‘zlarining qahramonona mehnati bilan buyuk g‘alabaga munosib hissasini qo‘shganlar.

Asakaliklardan mehnat frontiga, ya’ni “qurolsiz askarlik”ka olingan Shomahmedov Yashnur (1924-yil tug‘ilgan) 1942-yil 7 noyabrda Xabarsk shahar Amur qurilish brigadasiga, Pirmatov Turg‘un (1900-yil tug‘ilgan), Halimov Abdurahmon (1913-yil tug‘ilgan), Xolbekov Majid (1914-yil tug‘ilgan), Hasanov Mamazulin 1942-yil 29-sentyabrda Ural temir yo‘li qurilishiga safarbar etilgan [12. B. 12–63].

Afsuski, ikkinchi jahon urushi yillari birgina Asaka shahrining o‘zidan frontga safarbar etilgan 931 nafar jangchi yigit jang maydonlaridan qaytib kelmadi. Ular o‘z hayotlarini tinchlik va farovonlik uchun qurbon qildilar. Xalqimiz shahid ketgan hamyurtlarimiz xotirasini unutmaydi. Ularning nomlarini abadiylashtirish uchun Asaka shahrida bunyod etilgan yodgorliklar, maydon va ko‘chalarga ular nomi berilganki, ushbu maskanlar har doim ular xotirasini yodga solib turadi. Jumladan, Asaka shahrining markazidagi maydonga G‘ulom Yoqubov nomi berilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Asaka shahridagi barcha korxonalar faoliyati harbiy izga ko‘chirilib, ularda haqiqiy mehnat fronti ruhida ish tashkil qilingandi. Bu davrda asakaliklar ham butun o‘zbekistonliklar qatori front ortini mustahkamlashga, frontdagi jangchilarni moddiy, ma’naviy quvvatlab turishga butun e’tiborni qaratgandi. Urush yillarida xalqimizning yuksak insonparvarligi va sabr-bardoshliligi yaqqol namoyon bo‘ldi. Shahar ijroqo‘mi qoshida tuzilgan komissiya harbiy xizmatchilarning oilalariga zarur moddiy yordam ko‘rsatish choralarini amalga oshirdi. Bundan tashqari, respublikamiz hududiga ota-onalaridan urush tufayli judo bo‘lgan minglab etim go‘daklar ham keltirilgandi. 1941-yilning oxirlarida Asaka shahriga keltirilgan bolalarning bir qismi bolalar uyiga joylashtirildi, bir qismi mahalliy aholi tomonidan xonadonlarda tarbiyaga olindi. Ularga xalqimiz qo‘lidan kelganicha mehribonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatdi. Urush yillari Asaka shahrida 4ta bolalar uyi faoliyat ko‘rsatgan [9. B. 25].

Shuningdek, urush yillarida O‘zbekistonga SSSRning g‘arbiy hududlaridan bir million nafardan ortiq kishi, jumladan, 200000 bola evakuatsiya qilingan [11. B. 94]. 1942-yil g‘arbiy hududlardan ko‘chirilib keltirilgan aholining bir qismi Andijon oblastiga, jumladan, Lenin rayoni (hozirgi Asaka tumani)ga ham joylashtirilgan edi. Asakaga joylashtirilgan aholi orasida ko‘plab shifokorlar ham bor edi. Jumladan, Anna Krilova, Mariya Buloshnik, Yuriy Nikolayev, Mariya Gabidulina, Elenora Gorbeva, Fotima Ablyamitova va boshqalar [9. B. 25]. Bu shifokor mutaxassislarning kelishi Asaka tumanida tibbiyot sohasi rivojiga xizmat qildi.

Ikkinchi jahon urushi butun O‘zbekiston qishloq xo‘jalik xodimlari qatori asakalik dehqonlarni ham qattiq sinovdan o‘tkazdi. Ular oldida sanoatni xom ashyo bilan, aholini oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan uzluksiz ta’minlashdek ulkan, murakkab vazifa turar edi. Qishloq xo‘jaligining barcha bo‘g‘inlarida qat’iy ish tartibi belgilandi. Butun respublikada bo‘lgani kabi, eng kam miqdordagi majburiy mehnat kunlari 1,5 baravarga oshirildi, o‘smirlar uchun ham 12 yoshdan boshlab mehnat kunlari belgilandi. Belgilangan miqdordagi mehnat kunlarini bajarish majburiy qilib qo‘yildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonda dehqonchilik ekinlari yyetishtirishning strukturasi keskin o‘zgardi. Qishloq xo‘jaligida paxtachilikni asosiy tarmoq sifatida saqlab qolgan holda, donli ekinlar, qand lavlagi, kanop, pilla, sabzavot, poliz mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish tadbirlari ko‘rildi. Bunda birinchi navbatda ekin ekiladigan maydonlarni kengaytirish, irrigatsiya-milioratsiya quvvatlarini oshirish ishlari yuksak suratlar bilan olib borildi.

Shunday og‘ir damlarda asakalik qishloq xo‘jaligi xodimlari o‘zlarining fidokorona mehnati bilan g‘alabaga munosib hissa qo‘shdilar. Bunga o‘sha davr urush jangohlarida chop etilgan front gazetalari sahifalaridagi xabar hamda maqolalardagi ma’lumotlar misol bo‘la oladi.

“Vatan sharafi uchun” gazetasining 1944-yil 1-mart №17 (206) sonida “O‘zbekistondan xatlar” rukni ostidagi “Ko‘klam ishlari avj oldi” nomli xabarda Andijon oblastidagi besh kolxoz – Oltinko‘l rayonidagi Stalin nomli kolxoz, Lenin rayonidagi Engels nomliy kolxoz va boshqalar yer haydashni respublikada birinchi bo‘lib, muddatidan ancha oldin tamomladilar [13. B. 63], deya xabar beriladi. Shu gazetaning 1945-yil 7-yanvar, №2 (287) sonidagi “Mehnat frontining

qahramonlariga shon-sharaflar bo‘lsin!” nomli maqolada qishloq xo‘jaligi, sanoat, fan, madaniyat va san’at sohasida erishgan muvaffaqiyatlari uchun O‘zbekiston SSR tashkil topganining 20 yilligi kunida SSSR Oliy Soveti Prezidiumining farmoni bilan respublikaning bir qator ilg‘or mehnatkashlari SSSR ordeni va medali bilan mukofatlanadi. Ular orasida Andijon oblast Lenin rayonining “Stalinchi” kolxozi raisi Xoliqov Tursin “Lenin ordeni” bilan taqdirlangan [13. B. 186–190]. Ko‘rinib turibdiki, Asaka tumani qishloq xo‘jaligi xodimlari ham boshqa soha vakillari qatori o‘zlarining fidokorona mehnatlari bilan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan armiya, aholini ta’min etish ishiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganlar.

Xullas, Ikkinchi jahon urushi butun o‘zbek xalqi qatori asakaliklar uchun ham kuchli sinov davri bo‘ldi. Xalqimiz o‘zining asosiy ma’naviy-axloqiy xususiyatlari, insonparvarligini ushbu davrda yorqin namoyon etdi. Ikkinchi jahon urushi frontlarida ham, front ortida ham xalqimiz fidokorona mehnati bilan buyuk g‘alabaga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi.

Adabiyotlar:

1. *Мирзиёев Ш.М*. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.

2. Аждодларимизнинг беқиёс қаҳрамонлиги инсоният тарихига абадий ўчмайдиган, буюк саҳифа бўлиб ёзилган // Янги Ўзбекистон, 2021 йил 10 май.

3. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Иккинчи китоб. 1939–1991 йиллар. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – 575 б.

4. Асака туман Мудофаа ишлар бўлими жорий архиви, 3-фонд, 1-рўйхат, 120-иш.

5. Асака туман Мудофаа ишлар бўлими жорий архиви. 1940-1945 йилларда ҳарбий хизматга чақирилганлар қайд этилган дафтарлар. 3-фонд, 1-рўйхат, 12-фонд, 122-рўйхат.

6. *Шамсутдинов Р., Ҳошимов С., Қурбонов Х.* Қуролсиз аскарлар. // Водийнома, 2020. – № 3(18). – Б. 58–62.

7. *Брезняк Н.Г.* Герои Советского Союза – узбекистанцы. – Ташкент: Узбекистан, 1984. – 481 с.

8. *Жўраев Т.Ж*. Ватаннинг содиқ фарзандлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1964. – 187 б.

9. *Раҳмонов С*. Асака. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 94 б.

10. *Муҳиддинов З., Султонов А*. Андижонлик қаҳрамонлар. – Андижон: “Андижон” нашриёти, 1995. – 244 б.

11. *Rajabov Q., Zamonov A*. O‘zbekiston tarixi (1917–1991-yillar) –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 141 б.

12. Асака туман Мудофаа ишлар бўлими жорий архиви, 4-фонд, 1-рўйхат, 12-фонд, 121-иш.

13. *Шамсутдинов Р.* Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари. Иккинчи китоб. –Тошкент: Akademnashr, 2017. – 730 б.

INVOLVEMENT OF ASAKA LADS IN SECOND WORLD WAR

Soyibjon A. Khoshimov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 3(71). 57-63.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *western front, Soviet-Finnish war, Soviet-German front, labor front, “unarmed soldiers”, socio-economic life, orphanage, labor battalion, military service, aviation bombs, shells, memory space.*

Second World War was a catastrophe for all mankind. The peoples of the former Soviet Union, in particular, have suffered the most from this war. Many victories and losses lie at the heart of the victory over Nazi Germany and militaristic Japan. This article deals with the mobilization of the Asaka boys in World War II, their contribution to the great victory, based on new archival data.

The article also focuses on the age and ethnic composition of the Asaka people involved in the front, as well as the fact that many teenagers were killed in battles as a result of their mobilization to the

front without military training.

The courage of Guards Captain Gulomjon Yakubov and Senior Sergeant Mansur Idiatovich Abdullin, who were heroes of the Second World War on the fronts of Asaka, was revealed on the basis of new facts.

The article states that during the Second World War, all enterprises in Asaka were transferred to martial law, where work was organized in the spirit of a real labor front. The contribution of the people of Asaka, as well as all Uzbeks, to the strengthening of the rear, the people's care for the children relocated to Asaka, the upbringing of many children in the homes of the local population are revealed on the basis of archival sources. During the Second World War, all the military activities of the enterprises in Asaka were transferred to the military track, and work was organized in them in the spirit of the real labor front. During this period, the people of Asaka, along with all Uzbeks, focused their attention on strengthening the rear of the front, providing material and moral support to the fighters on the fronts. High humanitarianism and patience of our people were clearly demonstrated during the war years. The commission formed under the executive committee of the city took measures to provide the necessary financial assistance to the families of military personnel. In addition, thousands of orphans who were separated from their parents due to the war were brought to the territory of our republic. At the end of 1941, some of the children brought to Asaka were placed in orphanages, and some were brought up in homes by local residents. Our people showed them kindness and care as much as they could. During the war, there were 4 orphanages in the city of Asaka.

In 1942, a part of the population relocated from the western regions was resettled in Andizhan region, including Lenin region. Among the population settled in Asaka were many doctors. Including Anna Krylova, Maria Buloshnik, Yuriy Nikolaev, Maria Gabidulina, Elenora Gorbeva, Fatima Ablyamitova and others. This doctor contributed to the development of the medical field of Asaka district by the arrival of specialist personnel.

References:

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2017) *Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz* [We will resolutely continue our path of national development and raise it to a new level]. Vol. 1. Tashkent: O'zbekiston.

2. (2021) Ajdodlarimizning beqiyos qahramonligi insoniyat tarixiga abadiy o'chmaydigan, buyuk sahifa bo'lib yozilgan [The incomparable heroism of our ancestors is written in the history of humanity as a great page that will not be erased forever]. *Yangi O'zbekiston*, May 10.

3. Abdullaev, R. (ed.) (2019) *O'zbekiston tarixi (*1917-1991-yillar). Ikkinchi kitob. 1939-1991 [History of Uzbekistan (1917-1991). The second book is 1939-1991]. Tashkent: Uzbekistan.

4. *Asaka tuman Mudofaa ishlar bo'limi joriy arxivi* [Current archive of Asaka District Department of Defense Affairs]. Fund-3. List-1, Case-120.

5. *Asaka tuman Mudofaa ishlar bo'limi joriy arxivi*. 1940–1945-yillarda harbiy xizmatga chaqirilganlar qayd etilgan daftarlar [The current archive of the Department of Defense Affairs of the Asaka District contains notebooks in which conscripts were recorded in 1940-1945]. Fund-3, List-1, Fund-12, Case-122.

6. Shamsutdinov, R., Hoshimov, S., Kurbanov, Kh. (2020). Qurolsiz askarlar [Unarmed soldiers]. *Vodiynoma*. 3(18). Pp. 58-62.

7. Breznyak, N.G. (1984). *Geroi Sovetskogo Soyuza – uzbekistantsy* [Heroes of the Soviet Union Uzbeks]. Tashkent: O'zbekiston.

8. Jo'rayev, T.J (1964). *Vatanning sodiq farzandlari* [Loyal children of the country]. Tashkent: O'zbekiston.

9. Rahmonov, S (1999) *Asaka* [Asaka]. Tashkent: O'zbekiston.

10. Muhiddinov, Z., Sultonov, A (1995). *Andijonlik qahramonlar* [Heroes from Andijan]. Andijan: 'Andijon' nashriyoti.

11. Rajabov, Q., Zamonov, A (2017). *O'zbekiston tarixi* (1917–1991-yillar) [History of Uzbekistan (1917-1991)]. Tashkent: O'zbekiston.

12. Asaka tuman Mudofaa ishlar bo'limi joriy arxivi [Current archive of Asaka District Department of Defense Affairs], Fund-4, List-1, Fund-12, Case-121.

13. Shamsutdinov, R (2017). *Ikkinchi jahon urushi va front gazetalari* [World War II and frontline newspapers]. The second book. Tashkent: Akademnashr.

Muallif haqida ma'lumot:

HOSHIMOV Soyibjon Abdurazzaqovich – tarix fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti. E-mail: s.a.xoshimov.70@mail.ru